

## **Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya**

(soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish)

### **SAVOLLAR TO‘PLAMI**

1. Qishloq xo‘jalik sohasi bo‘yicha kasb tanlashda bu sohaning boshqa sohalarga nisbatan jozibadorligi nimada?
2. Sabzavot yetishtirishning o‘ziga xos ijobiy tomonlari, ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabni ortib borishini qanday izohlaysiz.
3. Nega yildan-yilga aholini turli tropik, subtropik va sitrus mevalarga bo‘lgan talabi oshib bormoqda?
4. Sintetik tolalar olish, ular asosida tayyorlangan materiallar ishlab chiqarish rivojlangan bo‘lsada nega paxta tolasiga bo‘lgan talab pasaymayapti?
5. Aholi soni oshib bormoqda, yer maydonlari esa chegaralangan. Bunday sharoitda insoniyatni ocharchilikdan saqlash uchun qanday tadbirlar olib borilishini ma’qullaysiz?
6. Yerga bo‘lgan munosabat elga bo‘lgan munosabat deyiladi. Hozirgi sharoitda yerga bo‘lgan munosabatlarga qanday izoh berasiz?
7. Aholi shuncha savdo magazinlari va supermarketlar bo‘lsada dehqon bozoridan savdo qilishni ma’qul ko‘radi. Buni sababini qanday izohlaysiz?
8. Qishloq xo‘jaligidagi intensifikatsiya nima? Intensivlashtirishning asosiy elementlarini izohlang.
9. O‘simliklarni himoya qilishning xalq usullari nimalarni o‘z ichiga oladi?
10. Tomorqa dehqonchiligi sanoat dehqonchiligidan qanday farq qiladi? Nega tomorqadan katta maydonlarga nisbatan doimo yuqori va sifatli hosil olinadi.
11. To‘qsonbosti ekinlarning turlari, ekish muddatlari va usullarini tushuntirib bering.
12. Uy sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat.
13. Inson iste’mol qiladigan oziq-ovqatlarning 92 foizi o‘simlik mahsulotlari, 7,9 foizi hayvonot olami mahsulotlari va 0,1 foizi boshqa mineral mahsulotlardir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda dehqonchilikning o‘rnini qanday baholaysiz va uni rivojlantirish istiqbollarini asosiy yo‘nalishlari nimada deb o‘ylaysiz?
14. Dehqonchilikda go‘ng va boshqa organik chiqindilarni qo‘llashning ahamiyatiga izoh bering.
15. Ekologik toza mahsulot yetishtirish deganda nimani tushunasiz?
16. O‘simlikshunoslikning nazariy asoslari va uni amaliyotda qo‘llash natijalari nimalardan iborat?

17. Jamiyat rivojlangan sari aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabi ortib boradi, buni sabablarini izohlab bering.
18. Yem-xashak yetishtirishning o‘ziga xos jihatlari va buni qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi ahamiyati.
19. Sabzavotchilikda ko‘chat yetishtirib, ko‘chatni dalaga o‘tqazib ertagi hosil yetishtirishning ilmiy va amaliy asoslarini yoritib bering.
20. Meva ko‘chatlari yetishtirishda payvandlash. Payvandlash turlari, usullari va muddatlari.
21. Tok ko‘chatlari yetishtirishning ilmiy va amaliy asoslari. Ko‘chatchilik sxemalari.
22. Bog‘ barpo etish. Daraxtlarni o‘tqazish muddatlari, sxemalari, usullari.
23. Tokzor barpo etish. Tokzor tuprog‘iga bo‘lgan talablar, ekish sxemalari, usullari va muddatlari.
24. Uy sharoitida uzumni saqlash, quritish va qayta ishlash usullari.
25. Uy sharoitida pomidorni saqlash, quritish va qayta ishlash usullari.
26. Uy sharoitida poliz ekinlarini saqlash, quritish va qayta ishlash usullari.
27. Uy sharoitida sabzavotlarni saqlash, quritish va qayta ishlash usullari.
28. Geterozis hodisasi va birinchi avlod duragaylari yetishtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yoriting.
29. Qishki dehqonchilik nima. Yerdan yil davomida samarali foydalanish asoslari.
30. Urug‘chilik va uni dehqonchilikdagi o‘rnini izohlab bering.